

**Rayxon O'dayeva Ahmadjonovna**

Xorazm viloyati Yangibozor tumani 2-son kasb-hunar maktabi

---

**PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RAHBAR VA PEDAGOG KADRLAR  
SALOHIYATINI YANADA OSHIRISH ORQALI PROFESSIONAL TA'LIM  
MUASSASALARINI ZAMONAVIY QIYOFASINI YARATISH**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada professional ta'lismi tizimini rahbar va pedagogik kadrlar salohiyatini yanada oshirish orqali professional ta'lismi muassasalarini zamonaviy qiyofasini yaratish, mamlakatimizda professional ta'lismi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini isloq qilish, professional ta'lismi rahbar va pedagogik kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish haqida to'liq bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** professional ta'lismi, pedagogik kadrlar, malaka oshirish, ta'lismni axborotlashtirish, axborot-ta'lismi muhiti, integrasiyalashuv.

---

**Kirish:**

Ma'lumki, davlatimizda professional ta'lismi tizimi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning ko'nikma va malakalarini yanada oshirish tizimini isloq etish to'g'risida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada takomillashtirish va professional ta'lismi muassasalarini zamonaviy qiyofasini yaratish bo'yicha harakatlar strategiyasida belgilangan "Uzluksiz ta'lismi tizimini yanada rivojlantirish, sifatlari ta'lismi xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" ustuvor vazifalarga muvofiq ta'lism portallarida on-layn va off-layn texnologiyalariga asoslangan masofaviy qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining joriy qilish yordamida pedagoglarning asosiy ishdan ajralmagan ravishda o'quv kurslari ta'lism dasturlarini mustaqil tarzda o'zlashtirish imkoniyatlarini yaratish, pedagog kadrlar malakasini oshirish jarayonlarida tinglovchilarning malakaviy tayyorgarligini shakllantirish va ularda yetarli bilim, malaka va ko'nikmalarini ilg'or axborot-ta'lism sharoitida takomillashtirish dolzarb sanaladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya:**

Uzluksiz pedagogik ta'lismi masalasini hal etish sohasidagi nazariy va amaliy tajribaga ijobjiy baho berib, bugungi kunda takomillashgan tuzilmaviy-mazmunli va protsessual tarkibiy qismlar pedagog kasbiy faoliyatining tabiatiga mos kelmasligini ta'kidlash kerak. Professional ta'lismi tizimi rahbar va pedagogik kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishning amaldagi tizimi zamonaviy talablarga to'liq javob bermaydi.

O'quv - tarbiya jarayonini yuqori ilmiy-uslubiy darajada ta'minlash, malakaviy talablar, o'quv rejalarini va dasturlari yordamida kasbiy va pedagogik mahoratni doimiy tarzda shakllantirishga yordamlashish uchun zarur bo'lgan kasbiy bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni yangilab borish malaka oshirish kurslarining muhim maqsadi sanaladi. Ta'lism sifati va samaradorligiga qo'yilayotgan talablar professional ta'lismi tizimi pedagog kadrlari malakasini oshirishning mohiyatini, shakllari va metodlarini ana shu talablarga mos ravishda rivojlantirib borishni taqozo qiladi.

**Natijalar:**

Malaka oshirish sohasidagi sifat o‘zgarishlar va yuqori samaradorlik ularning jahon ta’lim talablari bilan mosligi va pedagoglarning kelgusi mehnat faoliyatlarida o‘zlashtirgan kompetensiyalari qay darajada amaliyotga tatbiq etilayotganligiga bog‘liq. Ta’lim-tarbiyadagi sifat o‘zgarishlar va yuqori samaradorlik esa ushbu sohaga ijobilik kiritish bilan o‘lchanadi. Bunday yangilikni kiritish jarayoni innovation jarayon hisoblanib, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etib, ta’limda sifat va samaradorlikka erishishdan iborat bo‘ladi. Bu esa kadrlar ko’nikmasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi oldiga hamma soha mutaxassislarining, shuningdek, professional ta’lim tizimi o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi aqliy salohiyatini zamon talablariga mos shaklda uzuksiz rivojlantirib borish vazifasini qo‘yadi.

Ushbu dolzarb vazifalarni amalga oshirishda professional ta’lim tizimi muassasalari rahbarlari va pedagog xodimlarining funksional vazifasiga mos tarzda malaka oshirish va qayta tayyorlash jarayonlarining mohiyatini shakllantirish va takomillashtirish strategiyalarni tanlash, shuningdek malaka oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta’minalashga xizmat qiluvchi ta’limning innovation axborot-didaktik shakllarini ilmiy tadqiq etish, ishlab chiqish va ulardan tizimli foydalanish asosiy ahamiyat kasb etadi.

#### **Muhokama:**

Ta’limning innovations axborot-didaktik shakllari – ta’lim oluvchining qobiliyatları va qiziqishlarini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya mohiyatini, ta’lim maqsadiga mos shaklda loyihalash, shuningdek pedagogik, axborot-kommunikatsion uslublar, shakllar va o‘qitish usullarini tadbiq qilishga yo‘naltirilgan psixologik, umumpedagogik, didaktik va shaxsiy uslubiy tartiblar yordamida amalga oshiriluvchi ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir tizimi hisoblanadi.

Professional ta’lim tizimi pedagog kadrlari malakasini takomillashtirishning innovation axborot-didaktik shakllari – yuqori darajadagi samaradorlikni ta’minalovchi, pedagogik qonuniyatlar, maqsadlar, tamoyillar, mohiyat, shakl, uslublar, o‘qitish vositalaridan, shuningdek tarbiyalash usullaridan tashkil topgan loyihalash va mos shaklda mazkur texnologiyani amaliyotda foydalanish tizimidir.

#### **Xulosa:**

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, professional ta’lim tizimini rahbar va pedagogik kadrlar salohiyatini yanada oshirish orqali professional ta’lim muassasalarini zamonaviy qiyofasini yaratish, umumiyy muammo, maqsad, kelishilgan uslublar va faoliyat usullariga ega, faoliyatning birgalikdagi natijasiga erishishga yo‘naltirilgan ta’lim oluvchi - hamkorlarning o‘quv-bilish, tadqiqiy, ijodiy, ilmiy faoliyati tushuniladi. Har qanday muammo yechimi integrasiyalashgan bilimni talab qiladi. Axborot-ta’lim muhiti chuqurlashgan bilimlar integrasiyasini hamda tadqiq etilayotgan masala yuzasidan fan bilimlari sohasini, balki hamkorning xususiyatlarini, uning dunyonni bilishi va tushunishini, qarashlarini bilishni ham taqozo etadi.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Makarov S.I. O‘quv elektron nashrlarini yaratish va qo’llashning uslubiy asoslari: dis. Dr. ped. Fanlar: -M.: IOSO RAO. 2003.
2. Rashidov X.F. O‘zbekistonda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi rivojlanishining nazariy, uslubiy va ijtimoiy-pedagogik asoslari. Diss. dok. ped. Sci. -Toshkent, 2005.
3. Yasvin V.A. Ta’lim muhiti: modellashtirishdan dizayngacha. – M.: Olma-Press, 2001.